

## QOG'OZ VA UNING HUSUSIYATLARI

*G'ulomov Sherzodbek*

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi YPSH biologlar va kimyogarlarning  
ixtisoslashtirilgan maktabning 7-v sinf o'quvchisi*

Qog'oz nima ?

Qog'oz asosan o'simlik seliliyoza qobig'idan tayyorlanadi. U turli hil jinsdagi daraxtlarning bir yillik shoxidan olinadi. Qog'ozlarni mustahkamligini yanada oshirish uchun turli hildagi kimyoviy moddalar qo'shiladi. Masalan, zich, silliq qiladigan, bo'yoq olish xususiyatini yaxshilaydigan mineral moddalar kaolin, talk va boshqalar. Siyohni yoyiltirmaydigan yoki qog'ozni puxta va zich qiladigan yelimlovchi materiallar ya'ni kani-fol yelimi, kraxmal, smola. Bo'yagichlar, kimyoviy tolalar va boshqa qo'shiladi.

Qog'ozning tarixi

Qog'oz dastlab 2-asrda [Xitoyda](#) olingan. Say Lun o'simlik tolalarining bo'tqasini to'rdan o'tkazib, Qog'oz olishga muvassar bo'lgan. Bu usul ko'p vaqtlargacha sir saqlab kelindi, 6-asr boshlarida Yaponiyada joriy qilindi. 6—8-asrlarda Qog'oz ishlab chiqarish Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqaldi. 7-asrning boshlaridan — 19-asrning 1-yarmigacha Samarqandda ishlab chiqarilgan Qog'oz Turkistondagina emas, balki qo'shni mamlakatlarda ham mashhur bo'lgan. Keyinchalik Qog'oz tayyorlash arablar orqali Eron, Shimoliy Afrika va Kiprga, keyinroq esa Ispaniya, Marokash va boshqa mamlakatlarga yoyildi. Qog'oz bungacha yozuvda ishlatib kelinayotgan papirus va boshqa materiallarni siqib chiqardi. Keyinchalik (taxminan 10-asrda) Qog'oz ishlab chiqarish Ispaniyadan Yevropadagi barcha mamlakatlarga, shu jumladan, Rossiyaga o'tdi. 15—16-asrlarda kitob bosish kashf qilingan

Qog'ozning turlari

Endi qog'oz turlariga e'tiboringizni qaratamiz, shuni bilishingiz kerakki, bozorda tanlanadiganlar ko'p va ularning har biri har xil maqsadda ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, siz quyidagilarni topishingiz mumkin.

Bularga repro offset va bosma qog'ozlar ni misol qilib aytishimiz mumkin.

Bu qog'ozlarni kundalik hayot tarzimizda ham juda ko'p uchratishimiz mumkin. Har biri bizning hayot tarzimizda juda kata rol o'ynaydi. Masalan, biror bir muhim narsani eslab qolishingiz kerak. Tabiiyki uni darrov biror bir qog'ozga yoki yon daftarchangizga yozib qo'yasizlar. To'g'rimi ? demak qog'ozlarsiz hayotni tassavur ham qila olmaymiz.

#### Xulosa

Bizning hayotimizda qog'oz muhimro'l oynaydi. Ammo o'sha qog'ozlar daraxtlardan tayyorlanadi. Agar biz qog'ozlarni ayamadan ishlatib yuborsak, ekologiya buzuladi.